Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 82

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA XRONOTOPLAR TIZIMI

Halima Muxitdinovna Yuldasheva*

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD

✉ halimaxonim@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning bengal shoiri Qozi Nazrul Islom hayotiga bag‘ishlangan “Ruhlar isyoni” dostonidagi xronotop shakllari M.M.Baxtin nazariyasi va B.To‘rayeva taklif etgan tipologiya asosida tadqiq etildi. Dostonning 14 qismdan iborat tarkibi xronotopik jihatdan tasniflanib, fasl va rivoyatlarning navbatlashuvi tarixiy va abadiy zamon rejalarini almashtirib turuvchi kompozitsion mexanizm ekani asoslandi. Asarda real-tarixiy, zindon (yopiq makon), vizioner-psixologik, afsonaviy-folklorik, tarixiy-retrospektiv, vertikal-kosmik va muallif hozirgi zamoni xronotoplari ajratilib, ularning g‘oyaviy-badiiy vazifasi ochib berildi.

Kalit so‘zlar

Erkin Vohidov, “Ruhlar isyoni”, doston, xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, zindon xronotopi, rivoyat, tarixiy xronotop, afsonaviy xronotop, Nazrul Islom, kompozitsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23358334

KIRISH

O‘zbek adabiyotshunosligida xronotop nazariyasini chuqur o‘zlashtirgan olimlardan biri U.Jo‘raqulovdir. Olim “O‘tkan kunlar” romani misolida xronotop tizimini asarning “eng muhim va roman dunyosi uchun yangilik bo‘lgan jihatlaridan” biri deb baholaydi [3,B.200]. Uning qarashlari xronotopni asarning mazmuniy qatlami bilan cheklab qo‘ymay, syujet va obrazlar tizimini tashkil etuvchi omil sifatida ko‘rishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotimiz uchun eng qulay tahliliy vosita B.To‘rayevaning “Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida” maqolasida taklif etilgan tipologiya bo‘ldi . Muallif real, ijtimoiy, milliy, folklorik, fantastik, psixologik va tush xronotoplarini ajratadi: real xronotop voqealar mantiqiy izchilligi va ishonarliligini ta’minlasa, ijtimoiy xronotop muayyan davrdagi mafkuraviy tazyiq va inson qadri masalalarini aks ettiradi; folklorik xronotop afsona va rivoyatlar vositasida jamiyat muammolariga munosabat bildiradi; psixologik xronotop ichki monolog va o‘z-o‘zini tahlil orqali yaratiladi; tush xronotopi esa qahramon ongostini ochadi [4,B. 146–168]. Olimaning ta’kidlashicha, bu shakllar birgalikda asarning ichki yaxlitligini mustahkamlab, janr va syujet tuzilishini shakllantiradi. Biz ushbu tipologiyani asos qilib olgan holda, “Ruhlar isyoni” materialidan kelib chiqib, uni zindon, tarixiy-retrospektiv, vertikal-kosmik va muallif hozirgi zamoni xronotoplari bilan to‘ldirdik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dostondagi xronotop shakllarini B.To‘rayeva tipologiyasi bilan qiyoslangan holda quyidagi jadvalda keltiramiz

“Ruhlar isyoni” dostonidagi xronotop shakllari va ularning vazifalari

Xronotop shakli	To‘rayeva tipologiyasidagi mosligi	Doston qismlari	Asosiy badiiy vazifasi
Real-tarixiy	real, ijtimoiy	“G‘alayon”, “Tutqunlikda”, “Nihoyat”	voqealar ishonarliligi; mustamlaka zulmi va diniy nizo manzarasi
Zindon (yopiq makon)	real, psixologik	“Tutqunlikda”, “Sharpalar”	“jism – ruh” antitezasi; markaziy oppozitsiyaning bir qutbi
Vizioner-psixologik (ostona)	psixologik, tush	“Sharpalar”	inqiroz lahzasi; real va ruhiy olam chegarasi
Afsonaviy-folklorik	folklorik, fantastik	“Abadiyat…”, “Fidoyilik…”, “Jaholat…”, “Oliy ruhlar…”	tarixiy voqeani abadiy savolga aylantirish
Tarixiy-retrospektiv	(yangi shakl)	“Shohi Jahon va Avrangzeb…”	“ko‘zgu” vazifasi: shoh asirligi – shoir asirligi
Vertikal-kosmik	(yangi shakl)	“Isyon qo‘shig‘i”	geografik balandlikni axloqiy yuksaklikka aylantirish
Falsafiy-vaqtsiz	(yangi shakl)	“Muqaddima”, “Zohidlar va oriflar…”	umumlashtiruvchi ramka; ma’naviy tanlov
Muallif hozirgi zamoni	real, ijtimoiy	“Nihoyat”	ochiq final; isyonning davomiyligi

Izoh: “yangi shakl” — B.To‘rayeva tipologiyasida alohida ajratilmagan, “Ruhlar isyoni” materiali asosida taklif etilgan xronotop shakli.

Jadvaldan ko‘rinadiki, dostonda To‘rayeva tasnifidagi yettita shakldan real, ijtimoiy, folklorik, fantastik, psixologik va tush xronotoplari u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi, milliy xronotop esa, tabiiyki, boshqa (hind) milliy makon belgilari orqali beriladi. Shu bilan birga, asar materiali tarixiy-retrospektiv, vertikal-kosmik va falsafiy-vaqtsiz xronotoplarni alohida shakl sifatida ajratishni taqozo etadi. Barcha xronotoplar “zindon – ozodlik” oppozitsiyasi atrofida guruhlanadi: yopiq makonlar (zindon, tor darcha, go‘r) bir qutbni, ochiq va vertikal makonlar (Himolay, ko‘k, keng dunyo, ko‘cha maydonlari) ikkinchi qutbni tashkil etadi.

Olingan natijalarni Erkin Vohidovning boshqa dostoni — “Nido” bilan qiyoslash shoir xronotopik tafakkurining ikki yo‘nalishini ko‘rsatadi. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, “Nido”da voqealar retrospeksiya usuli orqali harakatlantirilishi, makon xronotoplari (“tog‘lar bag‘ridan”, “qishloq ko‘chasidan”) va zamon xronotoplari (“yigirma yil”, “44-yil”, “sentabr tongi”) ajratilgan. [11, B. 483–487]. “Nido”da xronotop ichkariga — xotira va tush tomon yo‘naladi; “Ruhlar isyoni”da esa u tashqariga — tarix, boshqa xalq makoni va mangulik tomon kengayadi. Birinchisi — shaxsiy xotira dostoni, ikkinchisi — tarixiy-falsafiy doston. Ammo ikkala asarni tush yoki vizioner holat, “yigirma yil” kabi ramziy zamon birliklari va ota-bola munosabati (“Nido”da ota va o‘g‘il, “Ruhlar isyoni”da Shohi Jahon va Avrangzeb) birlashtiradi.

Abdulla Oripov Erkin Vohidov she’riyati haqida “adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi” degan edi [8,B.11]. “Ruhlar isyoni” bu fikrning yorqin tasdig‘i: dostonda ikki aniq “kalit” — “Kal‘kutta, 1926 yil” va “Dehli 20 mart, 1979 yil” — mavjud va ular asarning butun makon-zamon tuzilishini ochib beradi. Biroq tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, Vohidovda aniq zamon va makon hamisha umumlashma tomon ochiladi: aniq sana “ming yil”, aniq shahar “dunyo” bilan yonma-yon turadi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Fasl va rivoyat navbatlashuvini mumtoz maqolat–hikoyat tamoyili [5,B.422] bilan bog‘lash Vohidov ijodidagi mumtoz an’ana masalasini doston kompozitsiyasi darajasida ham ko‘rishga imkon beradi. Shoir mumtoz adabiyot an’analarini g‘azal, qasida, muxammas janrlarida davom ettirgan, Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan. [9,B.110]. Bizning kuzatishimiz bu munosabat janr shakli bilan cheklanmay, xronotopik-kompozitsion tafakkurga ham ko‘chganini ko‘rsatadi. Shuningdek, rivoyatlar zamonining “ming yil”, “yarim ming yil” kabi epik o‘lchovlarda berilishi xalq og‘zaki ijodidagi zamon modeliga mos keladi.

Tadqiqotda taklif etilgan “ko‘zgu xronotop” tushunchasi (Shohi Jahon asirligi – Nazrul Islom asirligi) Lotmanning matn tuzilishi haqidagi qarashlari bilan ham hamohang: badiiy matnda takrorlanuvchi va parallel tuzilmalar ma’noni kuchaytiruvchi va yangi ma’no hosil qiluvchi vositadir [1,B.384]. Dostonda asirlik motivi uch xil makonda — zindon, saroy darchasi va (sharpalar orqali) o‘lim ostonasida — takrorlanadi. Har bir takrorda motiv yangi ma’no qatlamiga

ega bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, “Ruhlar isyoni”ni motivlarning xronotopik variatsiyalari asosida qurilgan asar deb ta’riflash mumkin.

Dostondagi ozodlik g‘oyasi Erkin Vohidovning shaxs kamoloti haqidagi qarashlari bilan ham bog‘liq. Shoir nazdida inson dunyoga “BILISHga INTILISH mas’uliyati, KOMILLIK sari YURISH mas’uliyati” bilan keladi. [10,B.363-365]. “Ruhlar isyoni”dagi “Zohidlar va oriflar haqida hikoyat” aynan shu mas’uliyatning falsafiy talqinidir: ozodlik dunyodan qochish emas, dunyo ichida haqiqatni izlash sifatida tushuniladi.

Asar tahlili dostonning elektron matni asosida bajarildi; iqtiboslarni shoirning to‘la asarlar to‘plamidagi akademik matn [6,B.432] bilan solishtirish va sahifalarini ko‘rsatish galdagi vazifadir. Ikkinchidan, dostonning 1979-yildagi ilk nashri va keyingi nashrlari o‘rtasidagi matniy farqlar o‘rganilmadi; sovet davri senzurasi ta’sirida o‘zgarishlar bo‘lgan-bo‘lmaganini aniqlash matnshunoslik tadqiqotini talab qiladi. Uchinchidan, asarni Nazrul Islomning bengal tilidagi she’rlari bilan qiyoslash — xususan, “Isyon qo‘shig‘i” va “Bidrohi” she’ri o‘rtasidagi aloqadorlikni tekshirish — istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qoladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Vohidov ijodida mumtoz an’ana masalasi doston kompozitsiyasida ham ko‘ringan. Shoir mumtoz adabiyot an’analarini g‘azal, qasida, muxammas janrlarida davom ettirgan, Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan shoir munosabati janr shakli bilan cheklanmay xronotopik-kompozitsion tafakkurga ham ko‘chgan.

2. Dostonda real-tarixiy, zindon, vizioner-psixologik, afsonaviy-folklorik, tarixiy-retrospektiv, vertikal-kosmik, falsafiy-vaqtsiz va muallif hozirgi zamoni xronotoplari ajratildi. Ularning uchtasi (tarixiy-retrospektiv, vertikal-kosmik, falsafiy-vaqtsiz) mavjud tipologiyani to‘ldiruvchi shakl sifatida taklif etildi.

3. Barcha xronotoplar “zindon – ozodlik” oppozitsiyasi atrofida tizimlashadi. “Garchi jismim / Bandi qafas, / Ruhimda bor ozodlik” misralari bu oppozitsiyaning badiiy formulasi bo‘lib, asar nomidagi “ruhlar isyoni” iborasining mazmunini ochadi: isyon makon chegaralarini tan olmaydigan ruhiy harakatdir.

4. Badiiy zamon tarixiy zamonga nisbatan erkin: shoir Nazrul Islom biografiyasidagi turli yillarga oid voqealarni yagona “isyon” mantiqida qayta tartiblaydi, biografik vaqtni esa “qirq yil” kabi epik formulalar orqali umumlashtiradi.

5. “Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat” “ko‘zgu xronotop” vazifasini bajaradi: XVII asrdagi shohning “tor darcha”dan “keng dunyo”ga boqishi XX asrdagi shoirning zindondagi holatini aks ettiradi va asirlik motivini tarixiy miqyosga olib chiqadi.

6. “Kal‘kutta, 1926 yil” va “Dehli 20 mart, 1979 yil” qaydlari dostonning ikki aniq xronotopik “kaliti” bo‘lib, qahramon zamoni va muallif zamonini bog‘laydi. Ochiq final isyonning davomiyligini ta’kidlab, shaxs taqdirini tarix va mangulik miqyosiga ko‘taradi.

7. Shoirning to‘la asarlar to‘plamidagi akademik matnni dostonning 1979-yildagi ilk nashri va keyingi nashrlari bilan qiyoslash, sovet davri senzurasi ta’sirida o‘zgarishlar bo‘lgan-bo‘lmaganini aniqlash matnshunoslik tadqiqotini talab qiladi. Asar va Nazrul Islomning she’rlari o‘rtasidagi aloqadorlikni tekshirish — istiqbolli yo‘nalish sanaladi.

Olingan natijalar Erkin Vohidov dostonchiligini xronotopik yondashuv asosida yaxlit o‘rganish, shuningdek, oliy ta’limda “O‘zbek adabiyoti tarixi” va “Adabiyot nazariyasi” fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.

2. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе: Очерки по исторической поэтике // Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – М.: Художественная литература, 1975.

3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

4. To‘rayeva B.B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2022. – № 1 (42). URL:https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2022/04/article-8392-5450.

5. Navoiy A. Hayrat ul-abror // Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami: 20 jildlik. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1991.

6. Vohidov E. To‘la asarlar to‘plami. 1-jild: Bahor tarovati: she’rlar, tarjimalar, dostonlar. Oltin devor: komediya. – Toshkent: Sharq, 2015.

7. Vohidov E. Ruhlar isyoni: doston [Elektron resurs] // Xurshid Davron kutubxonasi. – URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/erkin-vohidov-ruhlar-isyoni-doston.html.

8. Oripov A. So‘z sehri. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

9.Yo‘ldosheva H. Erkin Vohidov she’riyatida milliy ruh ifodasi: monografiya / mas’ul muharrir N. Jabborov. – Farg‘ona: Classik, 2023.

10.Yuldasheva H. Komillik sari yurish mas’uliyati // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2024. – № 1/11.

11. Yuldasheva H.M. Erkin Vohidov dostonlarida xronotop shakllari // Zamonaviy ta’lim islohotlari va ularning amaliy yechimlari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025. – Oktabr. URL: https://insightpublishing.org/